

**O'ZBEKISTON UY XO'JALIKLARINING QARZ YUKLAMASI VA
MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY
YONDASHUVLARI**

U. K. Axmedov

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi "Investitsiyalar va kapital bozori"
kafedrası v.b. dotsenti

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida uy xo'jaliklari moliyaviy resurslarining shakllanishida bank kreditlarining o'rni, aholi qarzdorligining dinamikasi hamda tijorat banklari kredit portfelining sifati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida kredit va depozitlar tarkibi, muammoli kreditlar ulushi, aholi kreditlariga bo'lgan talabning o'sish tendensiyalari hamda hududlar kesimidagi farqlar o'rganilgan. Shuningdek, uy xo'jaliklari moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va kredit risklarini kamaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** uy xo'jaliklari moliyasi, kreditlash, depozitlar, muammoli kreditlar, NPL, moliyaviy barqarorlik, aholi qarzdorligi, tijorat banklari.*

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo'jaliklari mamlakat iqtisodiyotining asosiy iste'molchi va jamg'aruvchi subyektini hisoblanadi. Ularning moliyaviy imkoniyatlari daromadlar, jamg'armalar va qarz mablag'lari orqali shakllanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi ortib, kreditlash hajmlarining sezilarli kengayishi kuzatilmoqda. Bu holat bir tomondan aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan qarzdorlik yuklamasi va kredit risklarining ortishiga sabab bo'lmoqda.

Shu sababli uy xo'jaliklari moliyasini baholashda tijorat banklari kredit portfeli, aholi qarzdorligi va muammoli kreditlar holatini kompleks tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlash, umumlashtirish va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Axborot bazasi sifatida 2026-yil 1-may holatiga O'zbekiston bank tizimi bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

O'zbekiston bank tizimida kreditlash jarayonlarining holati

2026-yil 1-may holatiga respublika bank tizimida jami kreditlar hajmi 628,9 trillion so'mni tashkil etdi. Mazkur mablag'larning 398,2 trillion so'mi yuridik shaxslar, 230,8 trillion so'mi esa jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keladi.

1-jadval.

Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL)

	Bank nomi	Jami kreditlar	shundan		Muammo li kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlar (NPL) %
			jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		
	Jami	628 999	230 775	398 224	21 917	3,30%
	Davlat ulushi mavjud banklar	417 262	122 559	294 703	15 097	3,50%
	O'zmilliybank	107 383	23 390	83 993	3 574	3,70%

.	Agrobank	89 021	19 360	69 661	3 154	4,20%
.	O'zsanoatqurili shbank	61 733	9 765	51 968	2 267	3,00%
.	Asaka bank	40 261	11 992	28 269	1 688	4,30%
.	Xalq banki	36 687	25 104	11 582	1 098	4,40%
.	Biznesni rivojlantirish banki	25 115	14 160	10 955	1 089	3,60%
.	Mikrokreditba nk	21 803	9 265	12 538	959	3,50%
.	Aloqa bank	20 698	5 697	15 001	754	3,20%
.	Turon bank	14 561	3 826	10 735	513	3,50%
	Boshqa banklar	211 737	108 216	103 521	6 821	3,20%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Kredit portfelining asosiy qismi davlat ulushi mavjud banklar hissasiga to'g'ri kelib, ular tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi 417,3 trillion so'mni tashkil etgan. Qolgan 211,7 trillion so'm kreditlar xususiy va xorijiy kapital ishtirokidagi banklar tomonidan moliyalashtirilgan.

Uy xo'jaliklari qarzidorligining o'sish tendensiyalari

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aholi kreditlariga bo'lgan talab so'nggi yillarda yuqori sur'atlarda ortib bormoqda. Agar 2020-yilda jismoniy shaxslarning bank kreditlari 43,8 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 230,8 trillion so'mga yetgan. Natijada olti yil davomida aholi kreditlari hajmi besh martadan ko'proq oshgan.

2025-yilning mos davriga nisbatan aholi kreditlari qoldig'i 21,2 foizga ko'paygan. Bu esa uy xo'jaliklarining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishda bank kreditlari muhim manbaga aylanganligini ko'rsatadi.

Aholi qarzlarning tarkibida ipoteka kreditlari yetakchi o'rinni egallab, ularning hajmi 83,9 trillion so'mga yetgan. Shuningdek, mikroqarzlarning (50,1 trillion so'm), mikrokreditlar (44,3 trillion so'm) va avtokreditlar (39,6 trillion so'm) ham yuqori ulushga ega. Ta'lim kreditlari hajmi 6,9 trillion so'mni tashkil etgan.

Hududiy tahlil natijalari Toshkent shahri kreditlash bo'yicha mutlaq yetakchi ekanligini ko'rsatmoqda. Poytaxt hissasiga jami kreditlarning 46 foizdan ortig'i to'g'ri kelmoqda. Toshkent shahrida kreditlar qoldig'i 290 trillion so'mdan oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich ko'plab viloyatlarning jami kredit portfelidan bir necha baravar yuqoridir.

Toshkent shahridan keyingi o'rinlarda Farg'ona, Samarqand, Toshkent, Qashqadaryo va Andijon viloyatlari joylashgan. Mazkur holat iqtisodiy faollik va moliyaviy resurslarning hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganligini ko'rsatadi.

Muammoli kreditlar va kredit portfeli sifati

2026-yil 1-may holatiga bank tizimida muammoli kreditlar hajmi 21,9 trillion so'mni tashkil etgan. Natijada NPL darajasi 3,5 foizga teng bo'lgan.

Davlat banklarida muammoli kreditlar ulushi 3,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, boshqa tijorat banklarida ushbu ko'rsatkich 3,2 foiz darajasida shakllangan.

Eng yirik muammoli kreditlar hajmi O'zmilliybank (3,6 trillion so'm), Agrobank (3,2 trillion so'm) hamda O'zsanoatqurilishbank (2,3 trillion so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Biroq ushbu banklarning kredit portfeli ham yirik bo'lgani sababli NPL ko'rsatkichlari nisbatan me'yoriy chegaralarda saqlanib qolmoqda.

Shu bilan birga ayrim tijorat banklarida, xususan Anor bank (5,8%), Tibisi bank (8,4%), Tenge bank (4,6%), Garant bank (10,3%), AVO bank (6,3%) va Poytaxt bankda (10,8%) muammoli kreditlar ulushi bank tizimidagi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori shakllangan. Bundan tashqari, ayrim kredit mahsulotlari bo'yicha foiz stavkalarining yuqoriligi uy xo'jaliklari qarz yuklamasining ortishiga ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Ushbu holatlar kredit risklarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Uy xo'jaliklari moliyasidagi asosiy muammolar:

- aholi qarzдорligining tez sur'atlarda ortishi;
- kreditlar o'sishining daromadlar o'sishidan yuqori bo'lishi;
- uzoq muddatli jamg'armalar ulushining yetarli emasligi;
- ayrim hududlarda kredit resurslariga qaramlikning kuchayishi;
- moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi;
- kredit mablag'larining katta qismi iste'mol maqsadlariga yo'naltirilishi.

- Bank kreditlarining foiz stavkalari juda yuqoriligi

Taklif va tavsiyalar

Uy xo'jaliklari moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha milliy dasturlarni kengaytirish;

Davlat tomonidan onlayn va iste'mol kreditlari bo'yicha yillik umumiy xarajatlar stavkasining maksimal chegaralarini belgilash hamda mas'uliyatli kreditlash tamoyillarini kuchaytirish;

kredit yuklamasini baholashda qarz oluvchining daromadlariga nisbatan limitlarni kuchaytirish;

uzoq muddatli jamg'arma va investitsiya instrumentlarini rivojlantirish;

hududlar o'rtasidagi moliyaviy nomutanosibliklarni kamaytirish;

kredit portfeli monitoringini raqamlashtirish va risklarni erta aniqlash tizimlarini joriy etish;

muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish;

zakot fondlarini tashkil etish va fond mablag'larini kambag'allikni qisqartirish dasturlariga yo'naltirish;

vaqf fondlari orqali ta'lim va uy-joy loyihalarini moliyalashtirish;

islomiy mikromoliyalashtirish tashkilotlarini rivojlantirish;

foizsiz biznes kreditlari va Qard Hasan dasturlarini kengaytirish.

Xulosa

O'zbekiston bank tizimida kreditlash hajmlarining ortishi uy xo'jaliklari moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo'lsa-da, qarzдорlik yuklamasining oshishi va ayrim banklarda muammoli kreditlar ulushining ko'payishi moliyaviy

barqarorlik uchun muayyan xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois kreditlash va jamg'arma siyosati o'rtasida muvozanatni ta'minlash, moliyaviy savodxonlikni oshirish hamda kredit risklarini samarali boshqarish uy xo'jaliklari moliyasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bekker G.S. Insonning xatti – harakati: iqtisodiy yondashuv.// SShA: EPI. 1994, -B. 99-107.
2. Батракова А.Г. Сбережения домашних хозяйств: сущность, группировки и роль в современной экономике // Деньги и кредит.–2006. - № 11. - С. 66-69.
3. Колдеева Е.В. Институциональные основы экономических отношений в сфере домашних хозяйств и изменение их роли как субъект хозяйствования. Ярославль: диссертация на соискание учёной степени кандидат экономических наук. 2005. – 161с.
4. Berkinov V.B. O'zbekiston iqtisodiyotida uy xo'jaliklarining o'rni va istiqbolda rivojlanish tendensiyalari. // В сборнике “Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики”. Т.: ИПМИ при КМ РУз, 2012. – С. 170-174.
5. Berkinov V.B., Axmedov U.K. Qishloqda uy xo'jaliklari rivojlanishi va oila daromadini oshirish istiqbollari. // Iqtisodiyot va ta'lim. TDIU, - 2012 №6. – 11-14 betlar.



6. Финансы домашних хозяйств: структура и управление // Проблемы теории и практики управления. 2010, № 1.– С. 1-11.

7. Axmedov U.Q. Qishloq joylarida uy xo'jaliklari daromadi va xarajatlarining tarkibi xamda ularni takomillashtirish yo'llari // Biznes-Ekspert №3.2016 y., 77-80 b.(08.00.00. №3)